

To‘lov terminali ijarasi va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida SHARTNOMA

20 __ yil “__” _____

№

_____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi nizom va ishonchnomada asosida faoliyat yuritib, bir tomonidan, va _____
(yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor)
rahbari _____ (keyingi o‘rinlarda – Mijoz)
ustav (nizom, guvohnoma)
asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tomonidan, mazkur Shartnomani quydigilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Ushbu Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan topshirish-qabul qilish dalolat-nomasiga muvofiq to‘lov terminalini(larini) Bank ijaraga topshiradi, Mijoz esa ijaraga qabul qiladi:

2. To‘lov terminali bank kartalari egalarining naqd pulsiz to‘lovlarini qabul qilish uchun ishlatalidi.

2-§. To‘lov terminalini topshirish-qabul qilish tartibi

3. Tomonlarning vakolatli vakillari ushbu Shartnoma 1-ilovasida keltirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolangan paytdan to‘lov terminali(lari) Mijozga ijaraga topshirilgan hisoblanadi.

4. Ushbu Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan anketada Mijozning bank kartasi egalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomalarligi, to‘lov terminali(lari) bo‘yicha Mijoz mas’ul xodimlarining ismi-familiyasi va ular to‘lov terminalini ishlatalish qoidalari bilan tanishtirilganligi qayd etiladi.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatları

5. Bank huquqlari:

a) to‘lov terminalining saqlanishi, texnik holati va uning Mijoz tomonidan ishlatalishi tartibini tekshirish;

b) to‘lov terminalining ijara haqini joriy oyning oxirgi sanasida mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan memorial order orqali aksepsiz tarzda yechib olish;

v) to‘lov terminalini ta‘mirlashga ketgan xarajatni, shuningdek Mijozning aybi bilan yo‘qotilgan yoki ta‘mirlash orqali tiklash mumkin bo‘lmagan holatlarda to‘lov terminalining qiymatini qoplashni talab qilish;

g) oylik ijara haqi miqdori bo‘yicha o‘zgartirishni, u kuchga kiritilishidan kamida bir oy oldin bu haqda tegishli axborotni, shuningdek ushbu Shartnoma yuzasidan qo‘srimcha bitim loyihasini www.trustbank.uz veb-sayti va Bank filiali binosida joylashtirish orqali Mijozni ogohlantirib, kiritish. Agar ushbu o‘zgartirish kuchga kiritiladigan sanagacha Mijoz tomonidan imzolangan qo‘srimcha bitim yoki uni imzolashdan bosh tortganligi haqida yozma xabar Bankka taqdim qilinmasa, bu hol O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq oylik ijara haqi miqdoriga kiritilayotgan o‘zgartirishga Mijozning to‘la rozilagini bildiradi.

6. Bank majburiyatları:

a) shartnomani tomonlar imzolagandan so‘ng 5 bank ish kuni ichida to‘lov terminalini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida yaroqli (ishlaydigan) holatda Mijozga topshirish;

b) to‘lov terminalini o‘rnatib berish, to‘lov tizimiga ulanishni amalga oshirish, Mijoz xodimlarini to‘lov terminali bilan ishlashga undan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarligi berish orqali o‘rgatish, servis xizmati ko‘rsatish;

v) to‘lov terminali buzilganda uni ta‘mirlash yoki yangisiga almashtirish.

7. Mijoz huquqlari:

a) to‘lov terminalidan ushbu Shartnomaning 2-bandida ko‘rsatilgan operatsiyani bajarish uchun foydalanish;

b) to‘lov terminalini sozlash, buzilgan bo‘lsa ta‘mirlash yoki almashtirish, o‘z xodimlariga to‘lov terminali bilan ishlash bo‘yicha yo‘riqnomaga berilishi yuzasidan Bankka murojaat qilish.

8. Mijoz majburiyatları:

a) Bankning tavsiyasini hisobga olgan holda to‘lov terminalini o‘rnatish uchun joy ajratish, uni elektr tarmog‘iga ularashni ta‘minlash;

b) to‘lov terminalini alohida telefon tarmog‘iga ularashni ta‘minlash;

v) to‘lov terminalining saqlanishi va komplektligini ta‘minlash;

g) o‘z kuchi yoki uchinchi tomonni jalb qilgan holda to‘lov terminalini ta‘mirlashga (sozlashga) yo‘l qo‘ymaslik;

d) to‘lov terminali ijarasi uchun o‘z vaqtida (oyning oxirgi sanasida) haq to‘lash;

e) to‘lov terminalini undan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomaga amal qilgan holda ishlatish, uni uchinchi tomonga bermaslik;

yo) mazkur Shartnoma muddati tugagandan so‘ng 3 bank ish kuni ichida to‘lov terminalini komplekt va yaroqli (ishlaydigan) holatda Bankka topshirish;

j) o‘z rekvizitlari (manzili, nomi, hisobvarag‘i, xizmat ko‘rsatuvchi banki va boshqalar) o‘zgarganda, bu haqida Bankka yangi rekvizitlarini ko‘rsatgan holda 3 bank ish kuni ichida xabar berish.

4-§. Tomonlarning javobgarligi

9. Shartnoma ijro etilmaganligi yoki to‘liq ijro etilmaganligi uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

10. Mazkur Shartnoma 6-bandining “a” kichik bandini o‘z vaqtida ijro etmaganligi uchun Bank har bir kechiktirilgan kunga to‘lov terminali balans qiymatining 0,5 foizi miqdorida, biroq to‘lov terminali balans qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

11. Ushbu Shartnoma 8-bandining “yo” kichik bandini o‘z vaqtida ijro etmaganligi uchun Mijoz har bir kechiktirilgan kunga to‘lov terminali balans qiymatining 0,5 foizi miqdorida, biroq to‘lov terminali balans qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

12. To‘lov terminali qaytarib topshirilayotganda nosoz bo‘lsa yoki komplekt holatda bo‘lmasa, Mijoz uni ta‘mirlashga xarajatni va to‘lov terminalining yetishmagan qismlari qiymatini qoplaydi hamda to‘lov terminali balans qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

13. Ushbu Shartnoma 8-bandining “d” kichik bandini o‘z vaqtida ijro etmaganligi uchun Mijoz har bir kechiktirilgan kunga muddati o‘tgan to‘lov qiymatining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

5-§. Ijara haqi va uni to‘lash shartlari

14. Mijoz to‘lov terminali uchun har oyda Bank tariflariga muvofiq Bankka ijara haqi to‘laydi.

15. Bank Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga aksepsiz tarzda to‘lov talabnomasi qo‘yish huquqiga ega, bunga Mijoz e’tiroz bildirmaydi.

Agar Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i Bankda bo‘lsa, Mijoz asosiy hisobvarag‘idan ushbu Shartnomada belgilangan ijara haqi va jarimani aksepsiz tarzda memorial order orqali undirib olish huquqini Bankka beradi.

**6-§. Shartnomaning amal qilish muddati,
shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish shartlari**

16. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi va u imzolangan paytdan amal qila boshlaydi.

17. Shartnama bir kalendar yili muddatiga tuzildi, agar tomonlardan biri 15 kalendar kuni ichida uni bekor qilish to‘g‘risida o‘z niyatini ma’lum qilmasa, shartnama keyingi yilga avtomatik uzaytirilgan hisoblanadi.

18. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar tomonlar o‘rtasida yozma ravishda kelishilgan bo‘lishi lozim, ushbu Shartnama 5-bandining “g” kichik bandiga muvofiq kiritiladigan o‘zgartirish bundan mustasno.

19. Bir tomon ikkinchi tomonni yozma ravishda ogohlantirgan holda mazkur Shartnomani xohlagan paytda bekor qilishga kirishishi mumkin. Bunda Mijoz to‘lov terminalini komplekt va yaroqli (ishlaydigan) holatda Bankka qaytarib topshirsa, shartnama ogohlantirilgan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida bekor qilinadi. To‘lov terminalini Bankka qaytarish tomonlarning vakolatli vakillari imzolagan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga to‘lov terminalining komplekt va yaroqli (ishlaydigan) holatdaligi (holatda emasligiga) oid Bank fikrlari kiritiladi.

20. Agar Mijoz to‘lov terminalini nosoz yoki komplektligi bo‘yicha to‘liq bo‘lmagan holatda topshirsa, ushbu Shartnama o‘zaro hisob-kitob tugagandan so‘ng bekor qilinadi.

7-§. Alovida shartlar

21. Shartnama shartlari va ularning bajarilishi yuzasidan nizo kelib chiqqanda, nizo tomonlar o‘rtasida o‘zapo kelishuvga muvofiq hal etiladi.

22. Tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmaganda nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

23. Tomonlarning biri qaytadan tashkil etilsa yoki tugatilsa, ushbu tomonning mazkur Shartnama bo‘yicha barcha huquq va majburiyatları uning qonuniy vorisiga o‘tadi.

24. Ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan boshqa holatlarni tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etadi.

8-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:
Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____
Bank kodi: _____
Bank hisobvarag‘i: _____
STIR: _____
Boshqaruvchi: _____
muhr o‘rni

Mijoz:
Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____
Bank kodi: _____
Bank hisobvarag‘i: _____
STIR: _____
Rahbar: _____
muhr o‘rni

TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI

20 __ yil “__” _____ shahri

Mazkur topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga ko‘ra Bankning vakolatli vakili –

(lavozimi va ismi, otasining ismi, familiyasi)

quyidagi to‘lov terminalini(larini) topshirdi, Mijozning vakolatli vakili –

(lavozimi va ismi, otasining ismi, familiyasi)

ularni komplekt va yaroqli (ishlaydigan) holatda qabul qildi:

Nº	To‘lov terminali markasi va uning qo‘sishimcha jihozlari	Soni, dona	Bir donasining balans qiymati, so‘m	Jami qiymati, so‘m (gr.2xgr.3)
0	1	2	3	4
1	“_____” markali to‘lov terminali			
2	“_____” markali to‘lov terminali			
3	To‘lov terminalini tok manbaiga ulaydigani kabel			
4	Savdo kartasi			
5	Bank kartasi egasi tomonidan PIN-kod kiritiladigan klaviatura			
...				
	Hammasi	x	x	

Ijaraga topshirilgan to‘lov terminallari va ular qo‘sishimcha jihozlarining umumiy qiymati

(_____) so‘m.

Bank tomonidan:

Mijoz tomonidan:

(imzo)

(imzo)

MIJOZ ANKETASI

(mijozning nomi)

Yuridik manzili _____
(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

Joylashgan manzili _____
(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

Rahbari _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Telefon _____

Bosh buxgalteri _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Telefon _____

Mijozning savdo (xizmat ko'rsatish) ob'ektlari:

1. _____
(nomi)

(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

Savdo (xizmat ko'rsatish) ob'ekti rahbari _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Telefon _____ Mas'ul xodim _____

2. _____
(nomi)

(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman, ko'cha, uy)

Savdo (xizmat ko'rsatish) ob'ekti rahbari _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Telefon _____ Mas'ul xodim _____

Bank kartalari egalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomalarini oldim, to'lov terminalini ishlatish qoidalari bilan tanishdim. Ushbu qoidalarga amal qilaman, agar mazkur qoidalarga rioya etmaslik oqibatida Bankka zarar keltirsam, uni qoplash majburiyatini olaman.

1. _____
(mas'ul xodim familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi) _____ *(imzo)*

2. _____
(mas'ul xodim familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi) _____ *(imzo)*

Mijoz nomi yuqorida qayd etilgan o'z xodimlarini bank kartasi egalariga xizmat ko'rsatish va to'lov terminalidan foydalanish bo'yicha mas'ul etib tayinladi.

Rahbar _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi) _____ *(imzo)*

Mijoz xodimlariga tegishli yo'riqnomalarini berdim va qoidalarning yozma matni bilan ta'minladim.

Filial tomonidan mas'ul xodim _____
(familiyasi, ismi, lavozimi va imzosi)